

AXSIKENT ME'MORCHILIGINING O'RGANILISH TARIXI

Tursunov Farrux Abdusalomovich

Namangan davlat universiteti Arxeologiya

Magistratura 2 - bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Axsikent me'morchiligining o'rganilish tarixi, Axsikat xarobalaridan g'arbroqda o'rta asrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi, Zahiriddin Muhammad Bobur Axsikent haqida o'zining "Boburnoma" asarida yozganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit So'zlar: *Axsikent, Boburnoma, Ahsi, axeolog, irrigatsiya, Damashq.*

Аннотация: *В данной статье содержится информация об истории изучения архитектуры Ахсикента, о существовании руин другого средневекового города западнее руин Ахсикента, а также о том, что писал об Ахсикент Захириддин Мухаммад Бабур в своем труде «Бобурнома».*

Ключевые Слова: *Ахсикент, Бабурнома, Ахси, археолог, ирригация, Дамаск.*

Abstract: This article contains information about the history of the study of the architecture of Ahsikent, the existence of another medieval city ruins west of the ruins of Ahsikent, and what Zahiriddin Muhammad Babur wrote about Ahsikent in his work "Boburnoma".

Key Words: Akhsikent, Baburnoma, Akhsi, archaeologist, irrigation, Damashq

KIRISH

O'zbek davlatchiligi tarixi bir necha ming yilliklarga borib taqaladi. Bu boradagi aniq dalillar mamlakatimiz hududida xarobalari saqlanib qolgan shahar va kentlarga oid manbalardan yaqqol namoyon bo'ladi. Ana shunday qadimiy davlatlardan biri



Farg'ona (Davan) davlati haqida guvohlik beradigan Axsikent yodgorligidir.

Ushbu qadimiy kentdan qolgan xarobalar buyuk tariximizdan so'zlaydi. Axsikent yodgorligi bugungi kunda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'i hududida, Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan.

Axsikent eramizdan avvalgi III asrda tashkil topgan bo'lib, qadimgi Farg'ona davlatining poytaxti, Buyuk ipak yo'lining asosiy shaharlaridan biri bo'lgan. Tarixiy manbalarda, xususan, "Boburnoma"da bu kentning alohida ahamiyati haqida ko'p yozilgan. Qadimdan bu yerda yer osti suv inshooti bo'lgani bois mudofaa uchun qulay sanalgan.

Shahar Ark, ichki va tashqi shahardan iborat bo'lgan. Bu yerda o'z davrida shishasozlik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik kabi hunarmandlik turlari rivojlangan. 1219 yilda mo'g'ullar tomonidan shahar butunlay vayron qilingan. Qasrning eski o'rnidan 5-7 kilometr g'arbda bunyod etilgan yangi shahar Axi 14-17 asrlarga oiddir. 1620-yillarga kelib zilzila oqibatida ulkan shahar vayron bo'lgan.

Adabiyotlar Va Metodologiya

Bugungi kunda xarobalarning 60 gektarga yaqin qismi saqlanib qolgan bo'lib, Farg'ona vodiysidagi eng katta arxeologik yodgorlikdir. Arxeologlar tomonidan temirchilar ustaxonasi, X-XIII asrlarga oid hammom qoldiqlari, askarlar xonalari, jome' masjidi, mudofaa devorlari, yer osti irrigatsiya tarmoqlari, hunarmandlar mahallasi, hukmdor qarorgohi – Ark qazib o'rganilgan.

Axsikat xarobalaridan g'arbroqda o'rta asrlarga oid yana bir shahar xarobalari borligi aniqlangan. Akademik Ya.G'ulomov va arxeolog I.Ahrorov mazkur tadqiqotlar asosida bu yerda turli davrlarga oid ikkita shahar bo'lganini, ulardan biri qadimgi Axsikat va ikkinchisi Bobur tug'ilgan Axi ekanini birinchi bo'lib isbotladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Axsikent haqida o'zining "Boburnoma" asarining 1494-yilgi voqealar bobida alohida to'xtalgan. «Sayhun suvining shimoliy tarafidagi shaharlardan biri Axsidir. Kitoblarda Axsikat deb yozadilar. Chunonchi, Asiriddin shoirni Asiriddini Axsikatiy deydilar. Farg'onada Andijondan keyin bundan yirikroq shahar yo'q. Axi Andijondan g'arb sari to'qqiz yig'ochlik yo'lda. Umarshayx mirzo buni poytaxt qilgan edi. Sayhun daryosi qo'rg'onining pastidan oqadi. Qo'rg'oni baland jar ustida joylashgan. Xandaq o'rnida chuqur jarlar bor. Buni poytaxt qilgan Umarshayx mirzo bir-ikki marotaba tashqariroqdan yana jarlar qazdirdi. Farg'onada bunchalik mustahkam qo'rg'on yo'q. Mahallalari qo'rg'ondan bir shar'iy yiroqroqda joylashgan. «Qishloq qayerdayu, daraxtlar qayerda?» maqolini affidan Axi uchun aytganlar. Qovuni yaxshi

bo'ladi. Bir nav qovunini „mirtemuriy" deydilar, bunday qovunning boshqa joyda ham borligi ma'lum emas. Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olgan paytimda Axsidan, Buxorodan qovun keltirib, bir o'tirishda so'ydirdim. Aysi qovunining hech misli yo'q edi. Ovlanadigan qushlari behad yaxshi bo'ladi. Sayhun daryosining Aysi tarafi dashtdan iborat. Oq kiyigi ko'p bo'ladi. Andijon tarafi to'qay; bug'u-maral, qir-g'ovul va yovvoyi quyon ko'p. Aksari juda semiz bo'ladi», deb yozgan buyuk sarkarda.

Natijalar

Axsikentda tayyorlangan qurollar «Damashq qilichlari» nomi bilan dunyoga mashhur bo'lib, G'arbda Damashq, Sharqda Xitoy bozorlarida sotilgan.

Aysi va unga yondosh hududlardagi olib borilgan so'nggi qazishma natijasida ko'plab noyob topilmalarni qo'lga kiritildi.

Shuningdek, bugungi kunda Namanganda «Aysi sayyidlari» ilmiy-ma'rifiy, me'moriy majmuasida muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Aysi osori-atiqalar muzeyida ayni paytda 516 ta eksponat mavjud.

Prezident Shavkat Mirziyoyev topshirig'iga binoan, Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo'yicha ulkan ishlar boshlandi. "Axsikent" arxeologiya merosi obyektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi.

Mazkur yodgorlik Namangan viloyatining sayyohlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yurtimiz va xorijdagi sayyohlik ko'rgazmalarida qadimiy Axsikent haqida ham taqdimotlar o'tkazilmoqda. Buning samarasida mahalliy va xorijiy sayyohlar o'rtasida tarixiy yodgorlikka qiziqish ortmoqda. Hozirga qadar Belgiya, Avstriya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya, Eron, Pokiston, Hindiston kabi davlatlardan sayyohlar tashrif buyurgan. Qadamjoni tadqiq etish, uning jozibadorligini va sayyohlar oqimini oshirish maqsadida maxsus konsepsiya ishlab chiqilgan. Ayni kunda shu asosda Farg'ona vodiysida ichki turizmni rivojlantirish choralari ko'rilmogda.



Ayni paytda Prezidentimizning ko'rsatmalariga binoan, bu yerda katta muzey tashkil etilmoqda. Axsikentning qadimiy dovruq'ini tiklash maqsadida ramziy darvoza quriladi. Kamoliddin Behzod chizgan suratlar asosida Umarshayx Mirzo va Boburning yodgorliklari bunyod etiladi. Sayyohlar uchun Sirdaryo bo'ylab qayiqlarda sayr qilish, tuyada ko'hna shaharni tomosha qilish imkoniyati yaratiladi.

Axsikent yodgorligi YUNESKO Butunjahon madaniy merosi obyekti hisoblanadi. Tarixi eramizdan avvalgi IV asrlarga borib taqaluvchi bu noyob yodgorlikni chuqur o'rganish, qadim poytaxt shahar tarixi bilan yurtdoshlarimiz, xorijiy sayyohlarni tanishtirish viloyatda turizmni rivojlanishi uchun keng imkoniyatdir.

XULOSA

Prezidentimiz topshirig'iga muvofiq 2017 yilda Axsikent tarixiy yodgorligini asrab-avaylash va tadqiq etish, uning haqqoniy tarixini yaratish bo'yicha ulkan ishlar boshlandi. «Axsikent» arxeologiya merosi ob'ektini muhofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi» davlat unitar korxonasi tashkil etildi.

Prezidentimizga Axsikent majmua bosh rejasi, uning tadqiqot olib borilgan ob'ektlari, hududda barpo etiladigan turistik majmua loyihasi haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari Axsikent tarixini ilmiy asoslangan holda chuqur o'rganish, ajdodlarimizning asl o'tmishi haqida ma'lumotlarni to'plash va yosh avlodga singdirish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish kerakligini ta'kidladi.

– Axsikent – buyuk tariximiz ko'zguasi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko'rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o'tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o'rgandik, bunday joylarga e'tibor qilmadik. Ma'naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo'lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg'aytirishimiz, xalqimizga etkazishimiz kerak.

Shavkat Mirziyoyev majmuada qadimiy tariximizni targ'ib qiluvchi festival o'tkazish, Namangan davlat universitetida arxeologiya ta'lim yo'nalishlarini ochish bo'yicha tavsiyalar berdi. Tarixni tarixiy ob'ektlarda o'qitish, maktab va universitetdagi amaliy mashg'ulotlar va darslarnig ayrimlarini shu erda o'tish zarurligini ta'kidladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova D.A., Filanovich M.I. Toshkent tarixi (qadimgi davrdan bugungi kungacha). - Toshkent, «Art Flex», 2007.

2. Анарбаев А.А. Еще раз о локализации столичных городов Ферганы (Даван — Даюан) и некоторые спорные вопросы, связанные с ними // Археология Узбекистана. - Ташкент, 2010. №1.
3. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. — Ташкент: «Фан», 1982.
4. Вайиберг Б.И. Этногеография Турана в древности. - М.: Вост. лит. РАН, 1999.